

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN  
DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA FANIDAN MALAKA TEST  
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Dehqonchilik va melioratsiya fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Dehqonchilik va melioratsiya**

1. Faning maqsadi, vazifasi, ilmiy asoslari va rivojlanish istiqbollari;
2. Tuproqning suv rejimi hamda uni boshqarish usullari;
3. Begona o‘tlarning biologik guruhlari va hisobga olish usullari;
4. Begona o‘tlarga qarshi kurash choralari;
5. Yerga ishlov berish, haydash usullari va sifati;
6. Shudgor va uning turlari;
7. Melioratsiya haqida umumiy tushunchalar va uning hozirgi ahvoli hamda rivojlantirish istiqbollari;
8. O‘zbekistonning suv resurslari va sug‘orish suvi manbalari. suvlarning sifati va sug‘orish uchun yaroqliligi;
9. Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimi;
10. Suv tejoychi sug‘orish usullari va texnikasi.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Faning maqsadi, vazifasi, ilmiy asoslari va rivojlanish istiqbollari	Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi nafaqat ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan, balki ekinlar plantatsiyalaridan biznes sifatida foydalanish, ulardan iqtisodiy foyda olishga keng qaratilgan. Hozirgi kunda dehqonchilikning rivojlanish asosi sifatida gidrologik, mexanik, kimyoviy, genetik va texnologik jihatlari keng rivojlantirilmoqda. Dehqonchilikka asoslangan kichik ishlab chiqarish va hunarmandchilik tez rivojlanib bormoqda. Dehqonchilikni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligini rejalashtirish, dasturiy ta‘minot va ijrosini ta‘minlash lozim.	6 ta
2	Tuproqning suv rejimi hamda uni boshqarish usullari	Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan hududlarida asosiy suv manbai daryolar hisoblanadi. O‘zbekistonning Chirchiq, Angren, Norin, Qoradaryo, Aris va boshqa daryo irmoqlari qo‘shiladigan Sirdaryo hamda Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Kofirnixon, Panj, Vaxsh kabi daryo irmoqlaridan hosil bo‘ladigan Amudaryo suv bilan ta‘minlaydi. Respublika sharoitida yog‘ingarchilikning asosiy qismi qishda va bahorda qisman kuzda tushadi, yoz oylari deyarlik yog‘ingarchilik bo‘lmaydi. Dehqonchilik hududlarida asosan kech kuz, qish va bahordagi yog‘ingarchiliklar hisobiga tuproqda nam to‘plash imkoniyati bo‘ladi.	6 ta
3	Begona o‘tlarning biologik guruhlari va hisobga olish usullari	O‘zbekistonda begona o‘tlarning 72 ta oilaga mansub bo‘lgan 841 turi uchraydi. Shundan 519 turi bir yillik 322 turi ko‘p yillik o‘simliklardir. Ishlab chiqarish sharoitida esa, ularning muhim biologik xususiyatlari,	2 ta

		<p>ya'ni oziqlanishi yashash davri va ko'payish usuliga ko'ra aniqlanadi.</p> <p>O'zbekistonda haqiqiy parazit begona o'tlardan poya paraziti zarpechak, devpechak va ildiz paraziti shumg'iya uchraydi.</p>	
4	Begona qarshi choralar o'tlarga kurash	<p>Begona o'tlarni yo'qotish oldini olish, qiruvchi va maxsus tadbirlarga bo'linadi.</p> <p>Dalalarni begona o'tlardan toza bo'lishini ta'minlashda ularni tarqalishini oldini olish tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik begona o'tlarning urug'i ekin bilan birga etiladi. Hosil yig'ishtirib olinganda ular donga aralashib ketadi. Odatda bug'doyga olabuta, ismaloq beda urug'iga zarpechak, sholiga kurmak aralashgan bo'ladi.</p>	2 ta
5	Yerga ishlov berish, haydash usullari va sifati	<p>Yerga ishlov bermasdan unda ekin etishtirib bo'lmaydi. Tuproq o'simlik ildizi uchun yetarli darajada yumshoq bo'lganda, uning suv-fizik xususiyatlari va mikroorganizmlarning faoliyati yaxshi bo'ladi, yerni ishlash deganda uni shudgor qilish, tekislash, asosiy ishlov berish, boronalash, kultivatsiyalash, chizellash, mola bosish kabilar tushuniladi.</p> <p>Bir-biri bilan bog'liq holda o'tkaziladigan tuproqqa har xil mexanik ta'sir etishlarga yerni ishlash tizimi deyiladi.</p>	2 ta
6	Shudgor va uning turlari	<p>"Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" degan naql bejiz aytilmagan. Yer kuzda haydalganda kesaklar orasidagi suv sovuq va iliq kunlarda goho muzlab, goho erib kesaklarni maydalanishini ta'minlaydi.</p> <p>Kuzda haydab qo'yilgan yerda namlik ko'p to'planadi, mikrobiologik jarayonlar uchun qulay sharoit yaratiladi. O'simlik qoldiqlari ko'milib chirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Kuzda haydab qo'yilgan yerni bahorda ekin ekishga tayyorlash ancha oson bo'ladi.</p>	2 ta

		Sifatli o'tkazilgan kuzgi shudgor bahorgi haydashga nisbatan ekinlar hosilini 10-20 % oshiradi, hosil erta va sifatli bo'lib yetiladi.	
7	Kirish. Melioratsiya haqida umumiy tushunchalar va uning hozirgi ahvoli hamda rivojlantirish istiqbollari	Sug'oriladigan yerlardan olinadigan mahsulotlar umumiy qishloq xo'jaligidan olinadigan mahsulotlarning 95 % ni tashkil etadi. Shuning uchun sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish ularni unumdorligini oshirib borish, har bir gektar yerdan kafolatlangan yuqori sifatli arzon mahsulot olish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilishda melioratsiya fanining ahamiyati juda katta. Chunki sug'oriladigan yerlarning 55-60 % sho'rlangan va botqoqlangan 50 % eroziyalangan 10-12 % gipeli, karbonatli, tuproqlardan iborat. Shu bilan birga sug'oriladigan yerlar tarkibida juda unumsiz qum va qumloq, toshloq, shagal tuproqlar ham keng tarqalgan.	2 ta
8	O'zbekistonning suv resurslari va sug'orish suvi manbalari. suvlarning sifati va sug'orish uchun yaroqliligi	Suv resurslari – bu gidrosferadagi tabiiy doimiy aylanishi jarayonida qaytadan tiklanib turuvchi suv zaxirasi bo'lib, unga okeanlar, dengizlar, daryolardagi suvlar, muzliklar, yer osti va tuproq suvlari, atmosferadagi suvlar kiradi. Yer sharining 3/2 qismi suv bilan qoplangan bo'lib, 98 foizi sho'r suvlar, ishlatishga yaroqsiz hisoblanadi. Atigi 2,0 foizdan ortiqrog'i chuchuk suv resurslari bo'lib, uning 79 foizi abadiy muzliklarga, 20 foizi yer osti suvlariga 1 foizi esa daryo va ko'llarga to'g'ri keladi.	5 ta
9	Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimi	Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimi deganda, o'simliklarning sug'orish soni, sug'orish me'yorlari va sug'orish muddatlari tushuniladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining suvga bo'lgan talabi iqlim zonalari, tuproq sharoitlari, sizot suvlar chuqurligi va	5 ta

		ularning minerallashtirish darajasi, parvarish qilinayotgan ekin turi yoki navining biologik xususiyatlariga bog'liq	
<b>10</b>	Suv tejoychi sug'orish usullari va texnikasi	Sug'orish tarmoqlari orqali oqib kelgan suv turli sug'orish usullari bilan ekinlar sug'oriladi. Sug'orish usullari deb turli qurilmalar, uskunalar, jihozlar yordamida suvni sug'oriladigan dalaga etkazish va taqsimlash usullariga aytiladi.	8 ta

### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
<b>1.</b>	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
<b>2.</b>	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
<b>3.</b>	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
<b>1.</b>	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
<b>2.</b>	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
<b>3.</b>	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
<b>4.</b>	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

### VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

### **VIII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. To'xtashev B.B., Axmurzayev Sh.I. Dehqonchilik, Darslik-T.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021 yil 332b.

2. Sultonov U.T., Eshonqulov J.S. Dehqonchilik, Darslik-T.: "Impress media" nashriyoti, 2022 yil 282b.

3. U.Norqulov, X.Sheraliyev Qishloq xo'jalik melioratsiya. Darslik. T.: ToshDAU tahrir-nashriyoti bo'limi, 2003 yil 136b.

4. To'xtashev B.B., Qarabaeva T., Ashirov Yu., Eshonqulov J.S. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi va yer tuzish fanidan amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlari T.: "Ijod press" nashriyoti 2019 yil 368b.

5. Artukmetov Z. Ekinlarni sug'orish asoslari va sug'orish tizimlaridan foydalanish. Darslik-T.: ToshDAU nashtiyot tahrir bo'limi, 2009 yil 158 b.

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.